Hunarmandchilik va xalq amaliy-san’atiga baag’ishlangan ko’rgazma tashkil etildi

O’zR FA O’zbekiston tarixi davlat muzeyining filiali Toshkent muzeyi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Toshkent shahar kengashi Respublika “Hunarmand” uyushmasi Toshkent shahar bo’limi bilan hamkorlikda “Hunarmandchilik va xalq amaliy-san’ati an’analari mahorat va ilhom manbalari” nomli ko’rgazma tashkil qilindi.

Ko’rgazmada Respublika “Hunarmandlar” uyushmasiga a’zo hunarmandlarning kulolchilik, zargarlik, pichoqchilik, gilamdo’zlik, do’ppido’zlik, kashtachilik, to’qimachilik va boshqa hunarmandchilik yo’nalishlarida faoliyat ko’rsatayotgan mohir ustalarning ijodiy ishlari, qo’l mehnati namunalari namoyish etildi.

Ko’rgazmaga tashrif buyurgan yoshlarga milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san’ati yo’nalishlari va hunarmandchilik orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an’analarini mahorat darslari va savdo ko’rgazmalari orqali bilib olishlariga imkoniyat yaratildi.